Аннотация. В данной статье исследованы научно-практические аспекты разработки механизмов сотрудничества с авторитетными зарубежными брендами и реализации совместных проектов на основе франчайзинга при подготовке продукции Узбекистана к международным рынкам. В ходе исследования проанализирована роль франчайзинговой модели в повышении экспортного потенциала, адаптации продукции к международным стандартам, формировании брендовой стоимости и обеспечении её конкурентоспособности. Оценены экспортные возможности текстильной, плодоовощной, кожевенно-обувной и фармацевтической отраслей, а также изучены

международные практики реализации совместных проектов. Результаты исследования подтверждают, что франчайзинг является эффективным инструментом продвижения продукции на глобальные рынки, ускорения технологического трансфера и развития экспортной инфраструктуры. В заключении представлены практические рекомендации по развитию экспортной модели на основе франчайзинга с учётом современных экономических условий Узбекистана.

Ключевые слова: франчайзинг, экспортный потенциал, зарубежные бренды, совместные проекты, международный рынок, подготовка к экспорту, ценность бренда, конкурентоспособность, кластерный подход, международные стандарты.

## KIRISH

Globalizatsiya jarayonlari bugungi kunda barcha mamlakatlar, ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, eksport salohiyatini oshirish, milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, ularning raqobatbardoshligini ta’minlash hamda jahon standartlariga moslashtirish har qanday davlat iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham mazkur yo‘nalishda izchil islohotlar amalga oshirilib, milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqish va xalqaro savdo zanjirlariga integratsiyalashuv darajasini oshirish muhim strategik maqsad sifatida belgilangan. Xususan, “Made in Uzbekistan” tashabbusi doirasida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ularni xorijiy bozorlarda faol ilgari surish va milliy brendlar qiymatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur nuqtai nazardan qaraganda, franchayzing modeli milliy mahsulotlar eksportini rivojlantirishda, ayniqsa nufuzli xorijiy brendlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda zamonaviy va barqaror biznes mexanizmlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Franchayzing – bu muayyan brend, texnologiya, boshqaruv tajribasi va sifat standartlariga asoslangan hamkorlik shakli bo‘lib, unda franchayzer (brend egasi) va franchayzi (mahalliy hamkor) o‘zaro manfaatli asosda faoliyat yuritadi. Ushbu model orqali nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalari va xizmat ko‘rsatish sifati takomillashtiriladi, balki savdo, logistika va marketing sohalarida ham yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida franchayzing modeliga bo‘lgan ehtiyoj izchil ortib bormoqda. Mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay institutsional muhit yaratilgani, tadbirkorlik faoliyatini yuritish tartib-taomillari soddalashtirilgani, bojxona va soliq imtiyozlari joriy etilgani ushbu modelni keng joriy etish uchun muhim shart-sharoitlarni yaratmoqda. Shu bilan birga, milliy mahsulotlarni eksportga tayyorlash jarayonida nufuzli xorijiy brendlar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish orqali ularni xalqaro bozorlarda ilgari surish, yangi raqobat muhitiga integratsiya qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o‘z navbatida mahsulotlarning sifati, dizayni, qadoqlanishi, marketing strategiyasi va texnologik darajasini xalqaro talablarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi [1].

Bunday sharoitda franchayzing asosida xorijiy brendlar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish strategiyasi O‘zbekiston mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqishda samarali va istiqbolli mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mexanizm bir qator muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi. Jumladan, birinchidan, xorijiy brendlar bilan hamkorlik orqali ilg‘or texnologiyalar va boshqaruv tajribasini joriy etish imkoniyati yaratiladi; ikkinchidan, franchayzing tarmog‘i orqali mahsulotlarni xalqaro bozorlarga ishonchli savdo kanallari orqali eksport qilish imkoniyati kengayadi; uchinchidan, xizmat ko‘rsatish madaniyati va mijozlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimi takomillashtiriladi; to‘rtinchidan, mahsulotlarga qo‘shimcha brend qiymatini yuklash orqali ularning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Franchayzing modeli va uning xalqaro iqtisodiyotdagi o‘rni so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib, ushbu modelning nafaqat xizmat ko‘rsatish sohasi, balki ishlab chiqarish, chakana savdo hamda eksport faoliyati yo‘nalishlarida ham samarali qo‘llanilayotgani alohida ta’kidlanmoqda. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlarini xalqaro bozorga olib chiqishda, innovatsion mahsulotlarni tarqatishda hamda transchegaraviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda franchayzing mexanizmlarining samaradorligi ko‘plab ilmiy manbalarda o‘z tasdig‘ini topgan. Shu nuqtai nazardan, mazkur bo‘limda franchayzing, eksport strategiyalari, nufuzli xorijiy brendlar bilan qo‘shma loyihalar tashkil etish hamda mahalliy mahsulotlarni eksportga tayyorlash bo‘yicha yetakchi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

Franchayzing tushunchasi XIX-asr oxirida AQShda shakllangan bo‘lib, dastlab savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida qo‘llanilgan. Kotler (2017) franchayzing modelini marketing tizimidagi vertikal integratsiyaning muhim vositasi sifatida baholab, ushbu model mahsulot va xizmatlarni yagona brend ostida, barqaror sifat

va standartlar asosida taklif qilish imkonini berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, franchayzing modeli yangi bozorlarni egallashda va geografik jihatdan uzoq hududlarda faoliyatni samarali tashkil etishda muhim strategik vosita hisoblanadi [3].

Mendelson (2018) franchayzing tizimining asosiy afzalliklari sifatida brendning yuqori darajadagi ishonchliligi, ilg‘or texnologiyalar transferi, marketing qo‘llab-quvvatlovi hamda franchayzi uchun tayyor biznes model mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi. Ushbu omillar franchayzing asosida xalqaro bozorlarga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Franchayzing modeli eksport faoliyatini boshlayotgan korxonalar uchun ishonchli hamkorlik platformasi bo‘lib xizmat qiladi, chunki franchayzer o‘z brendi va reputatsiyasini saqlagan holda mahsulotlarning sifatini va xalqaro talablarga mosligini ta’minlaydi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda franchayzing asosida nufuzli brendlar bilan hamkorlik qilish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning global bozorlarga kirib borish tajribasi keng o‘rganilgan. Jumladan, Hofstede (2016) va Cavusgil (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xorijiy brendlar bilan hamkorlik qilish mahsulot eksportini kengaytirish bilan bir qatorda institutsional ishonchni mustahkamlash, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalar transferini jadallashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Masalan, Carrefour, IKEA, Starbucks kabi yetakchi xalqaro brendlar o‘z hamkorlariga mahsulotni qadoqlash, logistika, marketing, xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini joriy etish bo‘yicha kompleks metodik yordam ko‘rsatadi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun bunday hamkorlik mahsulotlarni xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish, eksport talablariga moslashtirish hamda global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, Turkiya, Polsha, Malayziya va Indoneziya kabi davlatlar franchayzing asosidagi hamkorlik orqali o‘z milliy mahsulotlarini xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli ilgari surishga erishgan.

Eksport faoliyatiga oid ilmiy manbalarda eksport muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mahsulot ishlab chiqarish bilan emas, balki uni eksportga tayyorlash darajasi bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Daniels (2019) eksportga tayyorlash jarayonida xalqaro sertifikatlash, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, logistika tizimini tashkil etish, hujjat aylanishini optimallashtirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Ayniqsa, franchayzing modeli doirasida ushbu xizmatlarning integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi eksport samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2].

Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasi eksportga tayyorlov institutlarining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Italiya kabi davlatlarda maxsus eksportni qo‘llab-quvvatlash institutlari faoliyat yuritib, korxonalarga mahsulot sifati, sertifikatlash, xalqaro marketing, logistika va savdo huquqi bo‘yicha kompleks xizmatlar ko‘rsatadi.

Porter (1990) tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasiga ko‘ra, o‘zaro bog‘langan korxonalar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va ilmiy muassasalarning hududiy integratsiyasi umumiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu model franchayzing asosidagi qo‘shma loyihalarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Chunki xorijiy brend, mahalliy ishlab chiqaruvchi va logistika hamda marketing kompaniyalari o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritganda, bozorga kirish tezligi oshadi, xarajatlar kamayadi va mahsulot sifati yaxshilanadi [4].

UNIDO va ITC xalqaro tashkilotlari tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham klasterlash va qo‘shma loyihalar eksport salohiyatini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik rivojlanishni jadallashtirishning muhim omili sifatida e’tirof etilgan. Franchayzing modeli esa ushbu jarayonning muhim tarkibiy elementlaridan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston sharoitida franchayzing asosida eksportni rivojlantirish mexanizmlari hali shakllanish bosqichida bo‘lishiga qaramay, mavjud iqtisodiy va institutsional imkoniyatlar ushbu modelni keng joriy etish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Xususan, mamlakatda mavjud tabiiy resurslar, ishlab chiqarish salohiyati, rivojlanib borayotgan logistika infratuzilmasi hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun muhim asos hisoblanadi.

Shuningdek, Qozog‘iston, Turkiya va BAA davlatlari tajribasi franchayzing asosida xalqaro brendlar bilan hamkorlik qilish orqali eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Masalan, Qozog‘istonda LC Waikiki brendi bilan, Turkiyada esa Yevropa brendlari bilan hamkorlik asosida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar franchayzing modelining milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, eksport salohiyatini oshirish, texnologiyalar transferini jadallashtirish hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda samarali mexanizm ekanini ko‘rsatmoqda. Shu bois, franchayzing asosida nufuzli xorijiy brendlar bilan hamkorlik qilish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotini xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston mahsulotlarini xorijiy bozorlarga tayyorlashda franchayzing modelining ahamiyatini o‘rganish maqsadida tizimli, kompleks va taqqoslama yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari orqali franchayzing modelining eksport salohiyatiga ta’siri nazariy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, xalqaro tajribalarni qiyosiy o‘rganish hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi statistika ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar (OECD, UNIDO, World Bank, ITC) hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Mazkur metodologik yondashuv franchayzing asosida eksport faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatiga ega mahsulotlari kompleks tahlil qilindi. Xususan, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan va xalqaro talabga javob beradigan, franchayzing modeli orqali xorijiy bozorlarga olib chiqish imkoniyatiga ega tarmoqlar aniqlanib, ularning eksportga tayyorlik darajasi, xalqaro standartlarga muvofiqligi hamda raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari baholandi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston eksport tarkibida an’anaviy ravishda paxta tolasi, rangli metallar, tabiiy gaz, oltin va boshqa xomashyo resurslarining ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy diversifikatsiya siyosati doirasida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan qayta ishlangan tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, to‘qimachilik, charm-poyabzal, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoatida eksport hajmlarining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Ushbu tarmoqlar franchayzing modeli asosida nufuzli xorijiy brendlar bilan integratsiyalashgan holda xalqaro bozorlarga samarali kirib borish imkoniyatiga ega bo‘lgan istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, to‘qimachilik sanoati eksportga yo‘naltirilgan strategik tarmoqlar orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Xususan, 2023-yil yakunlariga ko‘ra, ushbu sohaning eksport hajmi 3,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Hozirgi kunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan 1500 dan ortiq yirik va o‘rta to‘qimachilik korxonalarining qariyb 60 foizi eksport faoliyati bilan shug‘ullanmoqda. Ushbu korxonalarning muhim qismi OEKO-TEX, BCI, ISO 9001 kabi xalqaro sifat standartlariga muvofiq sertifikatlangan. Mazkur holat franchayzing asosida ZARA, H&M, LC Waikiki kabi yetakchi xalqaro brendlar bilan hamkorlik qilish orqali yangi eksport bozorlari va distribyutsiya kanallariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sanoati ham eksport salohiyati yuqori bo‘lgan muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning qulay iqlim sharoiti va agrotexnik imkoniyatlari yil davomida turli xil meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Ayniqsa, anor, uzum, olma, nektarin, gilos, quritilgan mevalar, sabzavot konservalari va tabiiy sharbatlarga xalqaro bozorlarda yuqori talab mavjud. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, ushbu tarmoq eksporti hajmi 1,2 milliard AQSh dollariga yaqinlashgan. Ushbu mahsulotlar GLOBAL GAP, HACCP, ISO 22000 kabi xalqaro standartlar asosida qayta ishlanib, franchayzing modeli orqali Carrefour, Metro, Spar kabi yirik savdo tarmoqlari bilan integratsiyalashgan holda eksport qilinishi ularning global bozorlardagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Charm-poyabzal sanoati ham so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan eksport yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Hozirgi vaqtda “Uzcharmsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tayyor poyabzallar, charm buyumlar va aksessuarlar Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda. Ushbu mahsulotlar yuqori qo‘shilgan qiymatga ega segmentga kiradi. Agar ishlab chiqarish jarayonlari modernizatsiya qilinib, mahsulot dizayni va marketing strategiyasi franchayzing asosida ECCO, Deichmann, Bata kabi xalqaro brendlar bilan integratsiyalashsa, eksport geografiyasini kengaytirish va mahsulotlarning qo‘shilgan qiymatini oshirish imkoniyati sezilarli darajada ortadi.

Farmatsevtika sanoatida ham eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va sifati barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Hozirgi kunda mamlakatda GMP xalqaro standartiga muvofiq sertifikatlangan o‘nlab farmatsevtika korxonalari faoliyat yuritmoqda va ular dori vositalarini xorijiy bozorlarga eksport qilmoqda. Ushbu tarmoq franchayzing modeli asosida xorijiy farmatsevtika kompaniyalari bilan qo‘shma ishlab chiqarish, texnologiyalar transferi va distribyutsiya tizimini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, Hindiston, Turkiya va Rossiya kabi davlatlar bilan farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish yo‘nalishida hamkorlik qilish uchun muhim salohiyat mavjud [6].

O‘zbekiston mahsulotlarini xorijiy bozorlarga tayyorlashda franchayzing modelidan foydalanish masalasi global iqtisodiy integratsiya, brendlararo hamkorlik, xalqaro savdo madaniyati hamda innovatsion eksport

mexanizmlarining kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, franchayzing asosida ishlab chiqarilgan yoki eksportga tayyorlangan mahsulotlarni xorijiy brendlar orqali xalqaro bozorlarga olib chiqish nafaqat eksport hajmini oshirish, balki yangi qiymat zanjirini shakllantirish, texnologik rivojlanishni jadallashtirish va mahsulot sifati bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash imkonini beradi.

Muhokama jarayonida, avvalo, franchayzing modelining O‘zbekiston iqtisodiy sharoitlariga moslashuvi masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Ma’lumki, franchayzing modeli an’anaviy ravishda xizmat ko‘rsatish sohasida keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish va eksport faoliyatida ham o‘zining yuqori samaradorligini namoyon etmoqda. Ushbu modelning asosiy afzalliklari — tayyor biznes konsepsiyasining mavjudligi, ishonchli brend imiji, samarali menejment tizimi, aniq marketing strategiyasi hamda doimiy texnik va konsalting ko‘magining taqdim etilishi — ayniqsa eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Global bozorlarda raqobat faqat mahsulot sifati bilan emas, balki brend obro‘si, xizmat ko‘rsatish sifati va iste’molchi bilan samarali kommunikatsiya darajasi bilan belgilanadi. Franchayzing modeli aynan ushbu omillarni yagona tizimda integratsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida Delphi usuli asosida olingan ekspert baholari ham franchayzing modelining yuqori istiqbolga ega ekanligini tasdiqladi. Ekspertlar fikriga ko‘ra, franchayzing asosida xorijiy brendlar bilan qo‘shma loyihalarni rivojlantirish, ayniqsa to‘qimachilik, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, charm-poyabzal va farmatsevtika sanoati tarmoqlarida katta imkoniyatlarga ega. Mazkur tarmoqlar xalqaro standartlarga moslashtirilayotgan, sifat nazorati tizimi shakllangan hamda eksport bozorlarida barqaror raqobatbardoshlikka ega bo‘lgan sohalar hisoblanadi. Franchayzing asosida ushbu mahsulotlarni xalqaro savdo tarmoqlari va distribyutsiya tizimlariga integratsiya qilish orqali O‘zbekiston mahsulotlarining global bozordagi brend qiymatini oshirish va iste’molchilar ongida ijobiy imijini shakllantirish imkoniyati kengayadi [7].

Muhokama davomida franchayzing modelining samarali rivojlanishida huquqiy va institutsional muhitning ahamiyati ham alohida qayd etildi. Amaldagi normativ-huquqiy bazada franchayzing munosabatlarini tartibga soluvchi aniq mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi xorijiy brendlar bilan hamkorlikni kengaytirishda muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Xususan, franchayzing shartnomalari, intellektual mulk himoyasi, franchise to‘lovlari va hamkorlik majburiyatlariga oid aniq tartib-qoidalarni belgilovchi maxsus huquqiy asoslarning rivojlantirilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishda franchayzing faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunchilikni ishlab chiqish xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash, brend himoyasini ta’minlash hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi franchayzing asosida eksportni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etildi. GLOBAL GAP, HACCP, GMP, ISO kabi xalqaro sertifikatlar eksport faoliyatining ajralmas elementi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksportga yo‘naltirilgan ayrim korxonalarda ushbu sertifikatlar hali to‘liq joriy etilmagan. Shu sababli eksportoldi tayyorlov infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalar, konsalting markazlari va texnologik xizmat ko‘rsatish tizimlarini kengaytirish zarur hisoblanadi [8].

Bundan tashqari, franchayzing modelining samarali faoliyat yuritishi uchun marketing va xizmatlar infratuzilmasining rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega. Franchayzing modeli mahsulotni ishlab chiqarish bilan bir qatorda uni brendlash, targ‘ib qilish, pozitsiyalash va iste’molchiga yetkazib berish jarayonlarini ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, eksport marketingi, brend dizayni, raqamli marketing va reklama xizmatlari ko‘rsatadigan professional tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish franchayzing asosida eksportni kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirish ham muhim ekanligini ko‘rsatdi. Franchayzing modeli xalqaro biznes yuritish madaniyati, moliyaviy intizom, sifat menejmenti va samarali kommunikatsiya tizimini talab qiladi. Shu sababli eksport faoliyatiga ixtisoslashgan o‘quv markazlari, trening dasturlari va tajriba almashinuv platformalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi [9].

Franchayzing asosida amalga oshiriladigan qo‘shma loyihalar klaster yondashuvi asosida tashkil etilishi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Bunda ishlab chiqaruvchi korxonalar, moliya institutlari, konsalting tashkilotlari, davlat organlari va franchayzerlar yagona tizimda hamkorlik qiladi. Bunday integratsiyalashgan model mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqish jarayonini soddalashtirish, sifat nazoratini kuchaytirish va eksport samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, franchayzing asosida eksportni rivojlantirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi ham muhim hisoblanadi. Eksportni rag‘batlantirish jamg‘armalari, imtiyozli kreditlar, eksport sug‘urtasi va davlat kafolatlari mahalliy korxonalar uchun franchayzing asosida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim moliyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi [10].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari franchayzing modeli orqali O‘zbekiston mahsulotlarini xorijiy bozorlarga olib chiqish tizimli va kompleks yondashuvni talab qilishini ko‘rsatdi. Ushbu jarayon huquqiy bazani takomillashtirish, eksport infratuzilmasini rivojlantirish, marketing tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro

standartlarga moslashuv darajasini oshirish hamda davlat va xususiy sektor oʻrtasida samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyish orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Mazkur shartlar taʼminlangan taqdirda franchayzing modeli Oʻzbekiston mahsulotlarining global bozorlarda barqaror va raqobatbardosh ishtirokini taʼminlovchi samarali eksport mexanizmiga aylanishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi, eksport geografiyasini kengaytirish, mahalliy mahsulotlarni global standartlarga muvofiq tayyorlash hamda ular orqali barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, franchayzing modeli asosida nufuzli xorijiy brendlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan qoʻshma loyihalar nafaqat eksport hajmini oshirish, balki yangi avlod raqobatbardosh ishlab chiqaruvchilarni shakllantirish, xizmatlar sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish hamda xalqaro brendlar bilan teng sheriklik munosabatlarini rivojlantirishda muhim strategik vosita boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, franchayzing asosida Oʻzbekiston mahsulotlarini xorijiy bozorlarga tayyorlash mexanizmi zamonaviy iqtisodiy yondashuvga asoslangan, oʻzaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, brendlararo integratsiyani taʼminlash hamda eksport faoliyatini tizimli asosda tashkil etishning samarali yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur model ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, mahsulot sifatini xalqaro talablarga moslashtirish, marketing va logistika tizimlarini takomillashtirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Agar franchayzing modeli ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari va samarali institutsional qoʻllab-quvvatlash tizimi asosida mamlakat miqyosida keng joriy etilsa, Oʻzbekiston nafaqat anʼanaviy mahsulot eksportchisi sifatida, balki yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va mintaqaviy brend yetkazib beruvchi davlat sifatida oʻz mavqeini mustahkamlashi mumkin. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI


1. Kotler, P. Marketing menedjment [Marketing Management]. 15-e izd. Saint Petersburg: Piter, 2017. 800 p.
2. Mendelson, H. Franchayzing: model razvitiya biznesa [Franchising: A Model for Business Development]. Moscow: Ekonomika, 2018. 320 p.
3. Hofstede, G., Hofstede, G. J., Minkov, M. Kultury i organizatsii: programmnoe obespechenie razuma [Cultures and Organizations: Software of the Mind]. Moscow: Alpina Publisher, 2016. 470 p.
4. Porter, M. E. Konkurentnoe preimushchestvo: kak dostich vysokogo rezultata i obespechit ego ustoychivost [Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance]. Moscow: Alpina Business Books, 2020. 560 p.
5. Cavusgil, S. T., Knight, G., Riesenberger, J. R. International Business: The New Realities. 5th ed. New York: Pearson, 2020. 704 p.
6. Daniels, J. D., Radebaugh, L. H., Sullivan, D. International Business: Environments and Operations. 16th ed. Boston: Pearson, 2019. 864 p.
7. OECD. Enhancing the Contributions of SMEs in a Global and Digitalised Economy. Paris: OECD Publishing, 2017. 45 p.
8. UNIDO. Industrial Clusters and Poverty Reduction: Towards a Methodology for Poverty and Social Impact Assessment of Cluster Development Initiatives. Vienna: UNIDO, 2015. 96 p.
9. International Trade Centre. SME Competitiveness Outlook 2021: Empowering the Green Recovery. Geneva: ITC, 2021. 172 p.
10. World Bank. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. Washington, DC: World Bank, 2020. 300 p.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 2**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100